



**GENDER – HUQUQIY EKSPERTIZANI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR VAZIFALARI**

Azimbek Azimov Azizbek o'g'li

Azimovazimjon11@gmail.com

Toshkent davlat yuridik unverstiteti

magistratura talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada gender-huquqiy ekspertizaning ustuvor vazifalari ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, qonunchilikda gender-huquqiy ekspertizani o'tkazish bosqichlari hamda bugungi kunda gender masalalariga oid qonunchilikda kiritilayotgan o'zgarishlar haqida ham qisqacha to'xtalib o'tilgan. Ushbu maqola davomida gender huquqiy jarayonlar, gender audit, gender tamoyillar amalaga oshirish usullari masalasida mulohazalar yuritilgan. Bundan tashqari qonunchilikda gender-huquqiy ekspertizani faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bir qator takliflar berib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье раскрывается значение приоритетных задач гендерно-правовой экспертизы. Также кратко затронуты этапы проведения гендерно-правовой экспертизы в законодательстве, а также изменения, которые сегодня вносятся в законодательство, касающиеся гендерных вопросов. В ходе данной статьи были рассмотрены вопросы гендерно-правовых процессов, гендерного аудита, методов реализации гендерных принципов. Кроме того, в законодательстве содержится ряд предложений, направленных на совершенствование деятельности гендерно-правовой экспертизы.

Annotation. This article reveals the importance of the priorities of gender legal expertise. The legislation also briefly addresses the stages of gender-legal expertise as well as the changes that are being made in the legislation regarding gender issues today. During this article, comments were made on the issue of gender legal processes, gender auditing, methods of increasing the practice of

gender principles. In addition, the legislation has made a number of proposals aimed at improving the activities of gender legal expertise.

Kalit so'zları : Gender tenglik, gender tamoyillari, gender audit, gender-huquqiy ekspertiza, diskriminatsiya , davlat boshqaruvi apparati , srtategiya, ilmiy tadqiqot.

Ключевые слова: гендерное равенство, гендерные принципы, гендерный аудит, гендерно-правовая экспертиза, дискриминация, аппарат государственного управления , стратегия, научные исследования.

Keywords: Gender equality, gender principles, gender audit, gender-legal expertise, discrimination, public administration apparatus, strategy, scientific research.

Kirish

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida inson huquqlari jadal rivojlanib borayotgan bir paytda, davlatning inson qadrini va kapitalini yuksaltirishga hamda insonlarning haq- huquqlarini rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning eng muhim va dolzarb omil sifatida kata sahnaga chiqdi. Kuchli globallashuv jarayonlarida davlat boshqaruvida gender tenglikni o'rnatish, insonlarning diskriminatsiya uchrashini oldini olish uchun qanday vositalaridan foydalanishga oid tashvishlarning ahamiyatini oshirmoqda. Qolaversa, davlatlarda xalq hokimyatning birdan-bir manbai bo'lib, davlat boshqaruvida jinslar o'rtasida tenglikni ta'minlashda zamonaviy metod va texnologiyalarni milliy urf-odatlarga uyg'unlashtirgan holda xorij tajribasidan foydalanish darajasi davlat boshqaruvi samaradorligini belgilovchi juda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ikkijins vakili o'rtasida tenglikni rivojlanishi natijasida jamiyatning davlat organlari, sog'liqni saqlash, oila va nikoh munosabatlari, madaniyat va eng asosiysi ta'lif va fan kabi yirik institutlari tarmog'ida ijobjiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Shuni

inobatga olganda holatda qonunchilikda gender-huquqiy ekspertiza jarayonlarini va uni o'tkazish tartib-taomillari rivojlantirish kelgusida yuzaga keladigan ziddiyatli holatlarni oldini olish e'tiborga olinadi. Shu jumladan bu borada yurtimizda keng ko'lamda samarali mustaqillikdan boshlab bosqichma-bosqich olib borildi. 2019 yilda O'zbekiston Respublikasining "ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to'g'risidagi"gi Qonuni bilan gender-huquqiy ekspertiza tushunchasi mustahkamlandi, bu normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlaarini ta'minlash tamoyillariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilishni bildiradi¹. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni qabul qilinganligi va ushbu farmonning "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" IV bobining 69-maqсадида: Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokinita'minlash va jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash kabi ustuvor vazifalar belgilangan².

Gender-huquqiy ekspertizaning asosiy ustuvor vazifalardan biriga qo'yilishi jamiyatda yuz beradigan tengsizlikni oldini olishga qaratilgan. Bu jarayon bevosita qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari, va boshqa normativ hujjatlar bilan bog'liq. Ayollarning huquqlari himoya qilingan holda erkaklarning huquqiy holatini cheklamasdan jamiyatda tenglikni qaror toptirish va bu orqali mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy holatini barqaror holatga keltirish. Shuningdek fuqarolar orasida olib borilgan sotsiologik so'rovnoma da aksariyat fuqarolar tomonidan gender-huquqiy ekspertizani yoqlab ovoz berishdi va ularning fikricha, bu bizning qonunchilimiz sifatini yaxshilashga hissa qo'shishini ta'kidlashdi.

Y.G. Abramenkoni ta'kidlaganidek, qonunchilikning aniq gender betarafligi

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019-y., 03/19/562/3681-sон

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" farmoni 2022-yil 28- yanvarda qabul qilingan. Elektron manba:// <https://lex.uz/docs-5841063>

bilan ham, fuqarolik va oilaviy munosabatlar sub'ektlarining huquqlarini buzish xavfini o'z ichiga olish mumkin bo'lgan qonunchilik tuzoqlarini topish mumkin va qonun chiqaruvchi davlat hokimyati organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning gender tengligiga rioya etilishi va davlat tomonidan qabul qilingan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan printsiplari va normalari hamda xalqaro majburiyatlarining bajarilishi yuzasidan gender ekspertizasini amalga oshirishi lozim³.

Gender ekspertizasi qonun loyihasini, normativ-huquqiy hujjatni, qabul qilingan qarorni, huquqni qo'llash amaliyotini baholashni o'z ichiga oladi. Ob'ekt esa normativ hujjatlarni ishlab chiqish, amalga oshirish bo'yicha faoliyatdir. Vositalar bu – sub'ektiv fikr, ham intuitiv xulosalar ham tajriba natijasida shakllangan. Jarayon – tajribali mutaxassislarni birgalikda tashkil etish. Mahsulot-ekspertiza uchun taklif qilingan parametrlar bo'yicha kelishilganidan keyin mutaxassislarning xulosasidir. Bu qonun loyihasi, Qonunchilik , turli darajadagi siyosiy qaror, huquqni qo'llash amaliyoti bo'lishi mumkin⁴.

O'zbekiston Respublikasining “ Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda gender-huquqiy ekspertiza qanday maqsad va vazifalarni o'z ichiga olganini ko‘rishimiz mumkin.

Shunday qilib, normativ-huquqiy hujjatlarning ekspertizasi quyidagilar keltirilgan⁵:

- Jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitish imkonini yaratadigan normativ-huquqiy hujjatning yoki uning loyihasining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash tamoyillariga nomuvofiqligini aniqlash, jinsga qarab to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita kamsitish imkoniyatlarini yaratish;

³ Гендер и право: учебное пособие / Е.Г. Абраменко [и др.]; под ред. Т.В. Телятицкой. – Минск: ЮНИПАК, 2020. – с. 318.

⁴ И.И. Ларинбаева. Юридическая онтология гендерного равноправия. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.ю.н., Саратов–2004. с. 27.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 02.09.2019 yildagi O'RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni . Milliy qonunchilik bazasi <https://lex.uz/docs/-4494849> www.pedagoglar.org

- Jinsga qarab to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita kamsitish imkoniyatini yaratadigan normativ-huquqiy hujjat loyihasini qabul qilish oqibatlarini umumiy baholash;

- Normativ-huquqiy hujjatlarni qo‘llash jarayonida kamsituvchi xarakterdagi mumkin bo‘lgan xavflarni aniqlash;

- Jinsi bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita kamsitishga imkon berishi aniqlangan normalarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

Huquq nazariyasidagi turli ilmiy g‘oyalar va qarashlarni, tegishli xalqaro va milliy huquqiy normalarni tahlil qilish asosida quyidagi tushunchalarning mualliflik ta‘riflari ishlab chiqilgan:

Gender - bu jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta‘lim va fanda namoyon bo‘ladigan ayollar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy jihat;

Shunday qilib, jinsga qarab to‘g‘ridan-to‘g‘ri kamsitish-bu ayollar va erkaklar uchun jamiyat hayotining barcha sohalarida o‘z huquq va erkinliklarini tan olmaslikka qaratilgan har qanday farq, istisno yoki cheklash, shu jumladan oilaviy ahvol, homiladorlik, oilaviy majburiyatlar tufayli kamsitish, shuningdek jinsiy zo‘ravonlik, teng ish va malaka uchun har xil to‘lov, a bilvosita jinsiy kamsitish – bir jinsdagi shaxslarni boshqa jinsdagi shaxslarga nisbatan kamroq qulay holatga keltiradigan vaziyat, pozitsiya yoki mezonlarni yaratish, shu jumladan ommaviy axborot vositalari, ta‘lim, madaniyat orqali gender tengsizligini targ‘ib qilish, muayyan jinsdagi shaxslar uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan shartlar yoki talablarni belgilash⁶.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, qonunchilikda gender-huquqiy ekspertiza faoliyatini samaradorligini oshirishda jamiyatda yuzaga keladigan tengsizlikni oldini olishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish bu davlat va jamiyat hayoti sohalarini modernizatsiya qilishga ijobiy ta’sir etadi. Bu borada yuqorida ta’kidlab

⁶ O‘zbekiston Respublikasining 02.09.2019 yildagi O‘RQ-562-soni “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlarini to‘g‘risida”gi qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/-4494849>

o'tilganidek, gender-huquqiy ekspertiza jarayonlarini tizimli ravishda olib borish va ularning yuridik masalalariga oydinlik kiritish muhim masala hisoblanadi. Bundan tashqari so'nggi yillarda mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimida gender huquqiy munosabatlarga jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. Ushbu amalga oshirilayotgan sa'y harakatlar barcha sohalarni qamrab olmoqda. Shu jumladan, oliv ta'limda ayollarning ulushini ko'paytirishga doir bir qator imtiyozlar berildi hamda davlat boshqaruv organlarida ham ayollarning ulushini ko'paytirishga oid bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MAQOLALAR RO'YXATI

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019-y., 03/19/562/3681-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" farmoni 2022-yil 28- yanvarda qabul qilingan. Elektron manba:// <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. Гендер и право: учебное пособие / Е.Г. Абраменко [и др.]; под ред. Т.В. Телятицкой. – Минск: ЮНИПАК, 2020. – с. 318.
4. И.И. Ларинбаева. Юридическая онтология гендерного равноправия. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.ю.н., Саратов–2004.27
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 02.09.2019 yildagi O'RQ-562-soni "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida"gi qonuni . Milliy qonunchilik bazasi <https://lex.uz/docs/-4494849>
6. O'zbekiston Respublikasining 02.09.2019 yildagi O'RQ-562-soni "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlari to'g'risida"gi qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/-4494849>